texnik voqelik evolyutsiyasining murakkab, qarama-qarshi, ammo yagona jarayoni bilan shug‘ullanmoqdamiz.

Shunday qilib, innovatsiyalarning kelajagi inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi tanlov tekisligida emas, balki ularning dialektik sintezi tekisligida yotadi. Jamiyat, ta’lim va falsafaning asosiy vazifasi bu aloqani uyg‘unlashtirish uchun sharoit yaratishdir, shunda algoritmlarning kuchi bostirishga emas, balki yoshlarning ijodiy va axloqiy salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotlar ushbu simbiozning axloqiy regulyatorlari va yangi texnologik voqelikning "dirijyorlarini" tayyorlash uchun zarur bo‘lgan ta’lim paradigmalarini o‘zgartirish masalasini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdullayev Sh.I. Sun’iy intellekt asoslari va uning tatbiqi. Toshkent, TATU, 2023, 420-bet.

(2). Abdurahmanova G.K. Yoshlar va innovatsion tadbirkorlik: muammo va yechimlar. Toshkent, “Iqtisodiyot”, 2023, 184-bet.

(3). Bekmuratov M.M. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish. Toshkent, “Iqtisodiyot”, 2024, 288-bet.

(4). Jo‘rayev N.M. Texnika falsafasi va raqamli sivilizatsiya. Toshkent, “Mumtoz so‘z”, 2024, 232-bet.

(5). Ismailov T.X. Sun’iy intellekt va inson: hamkorlik strategiyalari. “Innovation texnologiyalar”, 2024, 2-son (22), 18–25-betlar.

(6). Karimov B.R. Dialektika va zamonaviy fan metodologiyasi. Toshkent, “Universitet”, 2023, 248-bet.

(7). Mirzayev S.J. Yoshlarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari. “Ma’naviyat va ma’rifat”, 2024, 1-son (12), 33–39-betlar.

(8). Nazarov K.N. Falsafa va yoshlar tafakkuri: raqamli asr muammolari. Toshkent, “Akademnashr”, 2024, 312-bet.

(9). Abdurahmonov H. (2020). The peculiarities of the formation of innovative thinking in the youth world-view. Форум молодых ученых, 8 (48), p. 3–6.

(10). Auyelbekova N., Akhtayeva N., Klepikov D., Sadvakassova Z., Abdurakhmonov H. (2024). Impact of persistence on self-esteem at the student age. The Journal of Psychology & Sociology, 88 (1).

(11). Ibrohimovich A.H. (2023). Modern Factors for Raising Student-youth Innovative Thinking in the Higher Education. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 15, p. 202–206.

Sapayev G‘ulomjon Baxtiyarovich (Ma’mun universiteti “Umumkasbiy fanlar” kafedrasi dotsenti, f.f.d. (PhD)

BOBOJON SANOIYNING ODIL SHOH VA ADOLATLI BOSHQARUV HAQIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya. *Maqolada XIX asr Xorazm ma’rifatchiligi va tarjima maktabining yirik vakili Bobojon Sanoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va adolat haqidagi g‘oyalari yoritilgan. Xususan, odil shoh va uning ma’naviy-axloqiy fazilatlari, hukmdor va amaldorlarning fuqarolar bilan munosabati, mamlakatni adolatli boshqaruvga oid fikrlari manbalar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Bobojon Sanoiy, ijtimoiy adolat, odil shoh, xalqparvarlik, siyosiy qarashlar, “Kanz ul-maorif”, “Haft Kishvar”, hukmdor, mamlakat, obod, fuqaro, zulm.*

СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ И ИДЕИ СПРАВЕДЛИВОСТИ БОБОЖОНА САНОИЙ

Аннотация. *В статье освещаются социально-политические взгляды и идеи справедливости Бобожона Саноий – одного из выдающихся представителей просветительства и переводческой школы Хорезма XIX века. В частности, на основе источников проанализированы представления об справедливом правителе и его духовно-нравственных качествах, взаимоотношениях правителя и должностных лиц с гражданами, а также его взгляды на справедливое управление государством.*

Ключевые слова: *Бобожон Саноий, социальная справедливость, справедливый правитель, народолюбие, политические взгляды, «Канз ул-маориф», «Хафт Кишвар», правитель, государство, процветание, гражданин, угнетение.*

SOCIO-POLITICAL VIEWS AND IDEAS OF JUSTICE OF BOBOJON SANOIY

Annotation. *The article examines the socio-political views and concepts of justice of Bobojon Sanoiy, a prominent representative of the Khorezm Enlightenment and translation school of the 19th century. In particular, based on primary sources, it analyzes his ideas on a just ruler and his moral and ethical qualities, the relationship between rulers, officials, and citizens, as well as his views on just governance of the state.*

Key words. *Bobojon Sanoiy, social justice, just ruler, people-centeredness, political views, "Kanz ul-Maorif", "Haft Kishvar", ruler, state, prosperity, citizen, oppression.*

Kirish. O'tmish va bugungi zamonaviy jamiyat tajribasiga ko'ra, mamlakat tinchligi va taraqqiyoti, jamiyat farovonligi, xalq osoyishtaligi va baxti hayoti, eng avvalo, odil hukmdorga, adolatli boshqaruvga, xalqparvar amaldorlarga bog'liq. Hukmdor va amaldorlar xalq manfaatiga xizmat qilishi lozim. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganidek, "xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak" [1;19-b.].

Sharq ijtimoiy-falsafiy tafakkurida adolat va davlat boshqaruvi masalasi asrlar davomida markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, tasavvuf va axloqiy ta'limotlarda hukmdorning ma'naviy fazilatlari jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida talqin qilingan. Xususan, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy singari Markaziy Osiyo mutafakkirlari, shuningdek, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Feruz kabi Xorazm ma'rifatparvarlarining asarlarida davlat boshqarui, adolat, odil va xalqparvar hukmdor g'oyalari asosiy o'rinni egallagan.

XIX asr Xorazm ma'rifiy muhitida ijod qilgan, o'z davrining mohir tarjimoni Bobojon Sanoiy asarlarida ham ushbu masalaga alohida e'tibor berilib, uning ijodida inson kamoloti, adolat, rahbar mas'uliyati va xalq manfaati masalalari o'zaro bog'liq holda tahlil qilinadi.

Maqsad va tadqiqot vazifalari. B.Sanoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda uning bugungi kundagi siyosiy tafakkur rivojidagi o'rnini tadqiq qilish bugunning muhim vazifalaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan Sanoiy asarlaridagi adolat, odil shoh, xalqparvarlik, insonparvarlik g'oyalarini kompleks tarzda o'rganib keng jamoatchilikka yoritish, kishilik jamiyatidagi davlat boshqaruviga oid turli illatlar, shoh va amaldorlar xalqqa munosabatiga oid qarashlarini ko'rsatish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni o'rganish va maqolani tayyorlashda B.Sanoiyning "Kanz ul-maorif" ("Bilimlar xazinasi"), "Hadiqai azhor" ("Gullar bog'i"), "Haft Kishvar" (Faxri Xiraviyning «Yetti mamlakat» asari) kabi asarlaridan manba sifatida foydalanib, unda tarixiy-tahliliy, mantiqiylik, dialektik, qiyosiy va umuminsoniylik usullardan foydalanildi. Muallif asarlarida zamonasining feodal tuzumi, undagi ziddiyatlar, ijtimoiy sinflar ziddiyati, hukmdor va amaldorlarning xalqqa nisbatan adolatsiz munosabatini yoritilgan hamda davlat boshqaruviga oid g'oyalar ifodalangan.

Muhokama. B.Sanoiy o'z asarlarida adolatli shoh g'oyasiga alohida e'tibor berib, hukmdor va amaldorlarni odil va sofdil bo'lishga chaqirish, shafqatatsizlik va zo'ravonlikni tanqid qilgan. Zero, tadqiqotchi Sh.Shakirova aytganidek, bunday yondashuv va g'oya aslida XIX asr Xorazm tarjima maktabi faoliyatida markaziy mavzvzuini tashkil etar edi [2;27-b.].

Mutafakkir ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va falsafiy qarashlarini tarjima asarlarida majoziy obrazlar orqali ifodalashga harakat qilgan hamda g'oyalarini ramziy obrazlarda tasvirlagan. Asarlaridagi ramziy tasvirlardan iborat rivoyatlari orqali jamiyatda adolat qaror topishi uchun hukmdor ma'naviy jihatdan komil, insofli va xalq dardini anglaydigan shaxs bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

Xususan, "Haft Kishvar" [3] tarjima asaridagi yetti iqlimga (yetti o'lka) sayohat to'g'risidagi rivoyatda, muallif bosh qahramon bo'lgan Ibn Turobni, uning sarguzashtlari va hamrohlarini ramziy manzaralar orqadi hukmdorlik, mamlakatni boshqarish, amaldorlarning xalq bilan munosabati, aholining turmush tarzi, adolat, siyosat haqida fikrlar bildiriladi. Bu asar haqida Xorazm tarjima san'ati maktabi bilimdoni N. Komilov, "Odilshoh (ikki olam podshohi – Tangri) olamni bino etib, yetti sayyora (o'lkalar, iqlimlar)ni yaratadi va ularga podshohlar belgilaydi", deb, asar mazmunini odil shoh va adolatli boshqaruvni majoziy obrazlarda tasvirlaydi [4;141-b.].

Sanoiy asarlarida adolat faqat huquqiy tushuncha sifatida emas, balki axloqiy va ma'naviy kategoriya sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, adolatli boshqaruv jamiyat barqarorligi, tinchlik va farovonlikning asosiy omili hisoblanadi.

B.Sanoiy asarlarida adolat g'oyasi markaziy o'ringa ega bo'lib, uning fikricha, adolatsiz boshqaruv jamiyatda ijtimoiy beqarorlik va ma'naviy inqirozga olib keladi. Shu sababli mutafakkir hukmdorning asosiy vazifasi xalq orasida adolatni qaror toptirishdan iborat, deb hisoblaydi. She'rlarida adolat va insof g'oyasi quyidagi misralarda ifodalanadi:

Adolatda, bas, emdi ma'lum erur,
Adadsiz savob onda mafhum erur. [3;14b–15a]

Bu misralarda adolatli hukmdor faoliyati jamiyat tinchligi va xalq farovonligining asosiy omili sifatida ko'rsatilgan.

Mutafakkir fikricha, adolat hukmdorning eng ulug' fazilati bo'lib, u xalq ishonchini mustahkamlaydi va davlatni mustahkamlaydi. Amaldorlarni odil, badavlat kishilarni sofdil bo'lishga chaqirib, shafqatatsiz-

lik va zo‘ravonlikni tanqid qiladi. Uningcha, haqiqiy hukmdor xalq dardini tushunadigan, adolatni qaror toptiradigan va ma’rifatni rivojlantiradigan shaxs bo‘lishi lozim.

Tadqiqotchi Sh.Shakirovaning “Haft Kishvar” dostonidagi qahramonga bergan izohicha, asardagi “Odilshoh” obrazini hukmdorlar, vazir, amir va to‘ralarga namuna qilib ko‘rsatiladi, shu orqali davlat taraqqiyoti va jamiyat farovonligini adolatga bog‘ligini tushuntiradi [2;26-b.]. Shuningdek, Sanoiy mamlakatni adolatli boshqarushda va xalqni rozi qilishda hukmdorlar fuqarolir bilan muloqotda bo‘lishi, ularning ishonchiga kirib, do‘stlashishi lozimligini bildiradi. U siyosiy qarashlarini turli obraz va hikoyalar orqali tasvirlab, davlat boshqaruvining markazlashgan shaklini yoqlaydi va adolatli hukmdor ishini har qanday ibodatdan afzal deb bilgan. Chunki adolatli shoh mamlakatni obod qiladi, u qurgan shaharda farovonlik hukm suradi, odamlar baxtiyor yashaydi va ikki dunyo saodatidan bahramand bo‘ladi.

Xususan, «Haft Kishvar» asarida aytadiki: “Zamoniy moziy, ya’ni, o‘tgan ayyomda bir podshohi odil va shahanshohi fozil bor erdikim, ismu alqobig‘a sulton Odilshohi hakim der erdilar. Ul podshoh bir kun xayol qildiki, ro‘zgor gohi saltanatin mushohada qilsa va oftobi azimat-u jalolatini ahli olamga zarraye namoyish bersa. Mashriqzamin sarhadida bir shahre bino qildikim, anda ikki jahon latatofatiyu ikki dunyo g‘arobati ravshanu namoyon erdi. Chunonchi, ahdi maymun va ro‘zi humoyunda hikmatosor va diyonat va Fasohatkirdor hukamo va ulamo bog‘oyat ko‘b erdi, chun ul ahli saodat dalolatu ishoratlari birla mazkur bo‘lg‘on shahar ul sifatda tarxi binovu istehkom topti, bu jihatdan ul shaharning odini «Kavnayn» qo‘ydilar” [3;307-b.].

Bundan kelib kelib chiqib, aytish mumkinki, mutafakkir barcha yovuzlik, qashshoqlik, baxtsizlik va notinchlikga amaldor hamda hukmdorlarning zolimligi, adolatsizligi aybdor, xalq osayishtaligi, jamiyat farovonligi va fuqarolarning baxtiyor yashashiga odil shohning ezgu ishlari sababdir.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Sanoiy zulmkor va adolatsiz shohni tanqid qilar ekan, bu xalqning sabr-kosasini to‘ldirishini, adolatsizlikka qarshi norozilik qo‘zg‘olonga aylanib, hukmdorning boshiga kulfatlar keltirshidan ogohlantiradi.

Oqizur zulm ila el ko‘z yoshini,
Ko‘rgusi beshak bu ish podoshini. [4;159-b.]

Bu esa Sanoiyning siyosiy-axloqiy qarashlarida rahbarning ma’naviy mas’uliyati muhim o‘rin tutishini ko‘rsatib, uning ta’kidlashicha, hukmdorning adolatliligi nafaqat siyosiy barqarorlik, balki ma’naviy muhitni ham ta’minlaydi.

Etib davlati shohga iltijo,
Qilib sharh kitobing etgil ado. [3;302-b.]

Sanoiy qarashlariga ko‘ra, davlat boshqaruvi axloqiy tamoyillar bilan uzviy bog‘liq bo‘llib, rahbarning shaxsiy axloqiy fazilatlari jamiyat hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Natijalar. Umuman, Sanoiy siyosiy qarashlari tahliliga ko‘ra, Sanoiy ijodida axloqiy tarbiya va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi bog‘liqlikni namoyon etadi. Uningcha, hukmdor quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi lozim:

– adolat va insof;
– xalq manfaatini himoya qilish;
– ilm va ma’rifatga hurmat;
– zulm va manfaatparastlikdan yiroqlik;
– fuqaroni eshitish va halollik.

B.Sanoiyning adolat va davlat boshqaruvi haqidagi qarashlari Sharq falsafiy an’analari bilan uzviy bog‘liq. Xususan, odil hukmdor g‘oyasini davlat barqarorligining asosiy sharti sifatida talqin qilgan Forobiy, Nizomulmulk, A.Navoiy, Munis, Ogahiy kabi mutafakkirlarning qarashlarini davom ettirib, adolatni davlat boshqaruvining markaziy tamoyili sifatida ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Bobojon Sanoiy ta’limotida adolat, axloqiy kamolot va davlat boshqaruvi o‘zaro bog‘liq holda talqin qilinadi hamda bunday qarashlarida Sharq ma’naviy merosida muhim o‘rin tutadi.

Mutafakkir nazarida, jamiyat taraqqiyoti odil rahbar faoliyatiga bog‘liq bo‘lib, odil shoh xalq manfaatini himoya qiluvchi, adolatni qaror toptiruvchi va ma’rifatni rivojlantiruvchi shaxs bo‘lishi kerak. Sanoiyning mazkur qarashlari bugungi kunda ham davlat boshqaruvi, ijtimoiy adolat va ma’naviy tarbiya masalalarini anglashda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ш.М.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. T., “O‘zbekiston”, 2019.

(2). Shakirova Sh.Y. Bobojon Sanoiy asarlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari. Monografiya, Toshkent, “Ilm-ziyo-zakovat”, 2020.

(3). Bobojon Sanoiy. “Haft Kishvar”. O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi, inv. № 1597/II va 7426.

(4). H.Komilov. Bu qadimiy san’at. T., G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.

Axatova Dildora Axtamovna (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); e-mail:axatovadildora795@gmail.com: ORCID:https://orcid.org/0009-0001-6849-0603)

IBN SINO RUH METAFIZIKASIGA G‘AZZOLIY MUNOSABATI: “TAHOFUT AL-FALASIFA” ASARI MISOLIDA QIYOSIY TADQIQ

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abu Homid G‘azzoliyning “Tahofut al-falasifa” asari asosida Ibn Sinoning ruh metafizikasiga doir qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi o‘rta asrlar Sharq falsafasidagi substansial dualizm va teologik antropologiya o‘rtasidagi ziddiyatlarni zamonaviy falsafiy kontekstda qayta baholash zaruriyati bilan belgilanadi. Ishda matniy qiyoslash, mantiqiy tahlil va deduksion metodologiyadan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari G‘azzoliy Ibn Sinoni oxiratdagi jismoniy tirilishni inkor etgani (metafizik xulosa) uchun tanqid qilsa-da, uning nafsning jismdan mustaqilligi haqidagi isbotlarini (ontologik asos) qabul qilganini ko‘rsatadi. Muallifning ilmiy hissasi G‘azzoliy tanqidining chegaralarini belgilash va uning keyingi asarlarida Ibn Sino terminologiyasining integratsiyalashuvini isbotlashdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *Ibn Sino, G‘azzoliy, Tahofut al-falasifa, ruh metafizikasi, nafs, substansiya, jism, jismoniy tirilish, tanqid, e’tirof.*

Ахатова Дилдора Ахтамовна (Шахрисабзский государственный педагогический институт, и.о. доцента кафедры социальных наук, доктор философии (PhD) по философским наукам; e-mail: axatovadildora795@gmail.com; ORCID: https://orcid.org/0009-0001-6849-0603)

ОТНОШЕНИЕ АБУ ХАМИД АЛЬ-ГАЗАЛИ К МЕТАФИЗИКЕ ДУШИ ИБН СИНЫ: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “ТАХАФУТ АЛЬ-ФАЛАСИФА”

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ отношения Абу Хамида аль-Газали к метафизике души Ибн Сины на основе труда “Тахафут аль-фаласифа”. Актуальность исследования обусловлена необходимостью переосмысления противоречий между субстанциальным дуализмом и теологической антропологией. В работе использованы методы текстового сравнения и логического анализа. Результаты показывают, что Газали, критикуя отрицание телесного воскрешения, признает доказательства Ибн Сины о независимости души от тела.*

Ключевые слова: *Ибн Сина, Аль-Газали, Тахафут аль-фаласифа, метафизика души, нафс, субстанция, тело, воскрешение, критика, признание.*

Akhatova Dildora Akhtamovna (Shahrisabz State Pedagogical Institute Acting Associate Professor, Department of Social Sciences Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy; e-mail: axatovadildora795@gmail.com; ORCID: https://orcid.org/0009-0001-6849-0603)

AVICENNA AND AL-GHAZALI ON THE METAPHYSICS OF THE SOUL: A COMPARATIVE STUDY BASED ON TAHAFUT AL-FALASIFA

Annotation. *This article presents a comparative study of Abu Hamid al-Ghazali's perspective on Ibn Sina's metaphysics of the soul based on the work “Tahafut al-Falasifa”. The relevance lies in the need to re-evaluate the conflicts between substantial dualism and theological anthropology. Textual comparison and logical analysis methods were applied. The results indicate that while Ghazali critiques the denial of physical resurrection, he accepts Ibn Sina’s arguments regarding the soul's independence from the body.*

Key words: *Ibn Sina, Al-Ghazali, Incoherence of the Philosophers, metaphysics of the soul, nafs, substance, body, resurrection, criticism, recognition.*

Kirish. Inson mohiyatini anglashda jism va ruh mutanosibligi falsafiy antropologiyaning eng qadimiy muammolaridan biri bo‘lib, u biologik mavjudlik va metafizik tabiati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishda asosiy ahamiyatga ega. Abu Ali ibn Sinoning nafs haqidagi ta’limoti islomiy peripatetizmning cho‘qqisi sifatida ruhni jismdan mustaqil, o‘zini anglovchi substansiya sifatida tushuntiradi. Biroq XI asr